KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI: YER – MULK, MULK – MEROS

Qodirova Go‘zal Qodir qizi
Toshkent viloyati adliya boshqarmasi
FHDY arxivi 1-toifali inspektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.22662739

Annotatsiya: mazkur maqolada Konstitutsiyadagi mulk va meros huquqiga oid yangicha yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, yer uchastkalarining xususiy mulk sifatida e’tirof etilishi natijasida, meros huquqi yangi obyektining asosiy Qonun doirasida mustahkamlanishi, meros tarkibining iqtisodiy jihatdan qiymati kengayishi va boshqa meros bilan bog‘liq masalalar yoritiladi. Xususiy yerga egalik qilishning meros huquqi institutiga ta’siri tizimli o‘rganiladi.
Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, meros huquqi, xususiylashtirilayotgan yer, vasiyat va qonun bo‘yicha meros, mulkiy huquqlar.

НОВЫЙ ЭТАП КОНСТИТУЦИОННЫХ РЕФОРМ: ЗЕМЛЯ — СОБСТВЕННОСТЬ, СОБСТВЕННОСТЬ — НАСЛЕДСТВО

Аннотация: В данной статье анализируются новые подходы к регулированию права собственности и права наследования в Конституции. В частности, рассматривается признание земельных участков частной собственностью, в результате чего формируются новые объекты права наследования в рамках основного законодательства, расширяется экономическая ценность наследуемого имущества и освещаются другие вопросы, связанные с наследством. Систематически изучается влияние владения частной землей на институт права наследования.
Ключевые слова: Конституция, право наследования, приватизируемая земля, наследование по завещанию и по закону, имущественные праваю.

A NEW STAGE OF CONSTITUTIONAL REFORMS: LAND AS PROPERTY, PROPERTY AS INHERITANCE

Abstract: This article analyzes the new approaches to the regulation of property rights and inheritance rights in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. In particular, it examines the recognition of land plots as private property, which results in the establishment of new objects of inheritance within the framework of the main legislation, the expansion of the economic value of inherited property, and the consideration of other issues related to inheritance. The impact of ownership of private land on the inheritance law institution is systematically studied.
Keywords: Constitution, inheritance law, privatized land, inheritance by will and by law, property rights.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar davlat va jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu islohotlardan maqsad esa – inson qadrini yuksaltirish, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash, mulkiy, iqtisodiy, shaxsiy, qo‘yingki barcha huquqlarini konstitutsion darajada himoyalashdir. Bundan bir qancha vaqt oldin loyiha sifatida shakllantirilgan va 2025-yilning 1-may sanasidan kuchga kirgan asosiy Qonunimizda ko‘plab yangilanishlar bilan birgalikda mulk va meros huquqining mazmunini kengaytirish, uning kafolatlarini mustahkamlash ham ko‘zda tutildi. Konstitutsiyaviy

o‘zgarishlarning aynan shu bosqichida yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulk huquqini tan olish orqali mulk va meros institutlariga yangi obyekt qo‘shilishiga imkon yaratildi.

Konstitutsiyada mulk huquqining daxlsizligi, har qanday mulk shaklining teng himoyasi, xususiy mulkning cheklanishi faqat qonun doirasida bo‘lishi va adolatli kompensatsiya qilinishi belgilandi. To‘g‘ri, avval ham bu kabi norma mavjud edi. Lekin, mulkdorga yetkazilgan zarar to‘liq va oldindan qoplanishi talabi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanmagan edi. Yangi tahrirda esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasi quyidagicha bayon etildi:

“Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega.

Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanadi.

Davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi qonun bilan belgilanadi”.[1]

Konstitutsiyaviy islohotlarning muhim va tarixiy ahamiyatidan biri – yerga bo‘lgan huquqiy yondashuvning tubdan o‘zgarganligidir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor yer uchastkalarining ayrim toifalarini xususiy mulk sifatida e’tirof etish imkoniyati konstitutsiyaviy darajada belgilandi. Uning belgilanishi fuqarolarga qanday imkon beradi? Uzoq vaqt davomida mamlakatimizda yerga xususiy mulk sifatida qaralmasligi haqiqiy mulkdorlar qatlamining yetarlicha shakllanmasligi, yerning meros sifatida o‘tmasligi, buning natijasida merosning iqtisodiy qiymati tushib ketishi holatlari kuzatildi. “Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 20-iyulda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda “Asosiy qonunimizda yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi aniq belgilanishi lozim”, deb alohida ta’kidlaganligi qat’iy siyosiy iroda namunasidir”.[2]

Shu sababdan Konstitutsiyamizning 68-moddasi quyidagi tahrirda bayon etildi:

“Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”.[3]

Aynan shu o‘zgarishlar mulk va meros institutlarini yanada rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi. Chunki avval yer uchastkalari to‘liq xususiylashtirilmagan sharoitda meros huquqi asosan foydalanish huquqining o‘tishi bilan cheklanardi. Yangi konstitutsiyaviy norma esa yerni meros huquqining to‘laqonli yangi obyektiga aylanayotganligini ko‘rsatadi.

Yerning xususiylashtirilishi bir qancha natijalarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, yer uchastkasi endi boshqa mulklar qatori meros tarkibiga kiritiladi. Bu esa merosning iqtisodiy qiymati oshishiga, oilaviy mulkning saqlanish qiymati kuchayishiga olib keladi;

ikkinchidan, yer adolatli tarzda baholanib, merosxo‘rlar orasida yerni taqsimlash bilan bog‘liq muammolarni osonlikcha hal etish mumkin bo‘ladi;

uchinchidan, xususiy yer uchastkalarining meros bo‘lishi garov, ipoteka munosabatlarini kengaytiradi;

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 47-modda. https://lex.uz/docs/-6445145

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti.“Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob”. Qo‘llanma. -Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.2023-yil. 120-bet

[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 68-modda. https://lex.uz/docs/-6445145

to‘rtinchidan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshishiga ham yordam beraid. Ya’ni, yerning oilaviy mulk sifatida qadrlanishi, merosni oldindan rejalashtirish masalalarini shakllantiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mulk huquqining mustahkamlanishi va yerga egalik qilish tartibining isloh etilishi mulk va meros institutlariga yangi obyektni olib keldi. Yer uchastkalarining xususiy mulk sifatida e’tirof etilishi avvalo, mulkchilikning rivojlanishi, iqtisodiy erkinlik ortishiga xizmat qiladi. Ushbu islohotlar natijasida yer to‘laqonli meros huquqi obyektiga aylantirildi. Bu esa meros huquqi institutining mazmun-mohiyati kengayishiga, meros tarkibi iqtisodiy qiymati oshishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda oilaviy mulkning avlodlararo davomiyligini ta’minlaydi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida mulk huquqining mazmuni qayta ko‘rib chiqilib, yerga egalik qilishning yangi tartiblarini belgilash mamlakat huquqiy tizimining yanada modernizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi. Endilikda yer uchastkasi nafaqat foydalanish huquqi sifatida, balki fuqarolarning meros qoldirishi mumkin bo‘lgan mulki sifatida meros huquqining tarkibiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyada mulk va meros huquqlariga oid yangi yondashuvlarning mustahkamlanishi mamlakatning iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Bu islohotlar fuqarolarning mulkiy daxlsizligini kafolatlaydi, meros huquqi institutining samaradorligini oshiradi va bozor iqtisodiyotining barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun mustahkam konstitutsiyaviy poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (eski tahrir) https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism. https://lex.uz/docs/-180552
4. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/docs/-5858015
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti.“Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob”. Qo‘llanma. -Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.2023-yil. 180-bet.
6. Madina Ochilova. “Endi o‘zingizga tegishli yerni xususiylashtirishingiz mumkin: qanday qilib va qancha to‘laysiz?”.Maqola.Kun.uz. https://kun.uz/news/2022/02/19/endi-ozingizga-tegishli-yerni-xususiylashtirishingiz-mumkin-qanday-qilib-va-qancha-tolaysiz